JIZZAX VILOYATI DO‘STLIK TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 29-iyul 164-3-47-Q/24 Do‘stlik tuman hokimligi

Do‘stlik tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish yuzasidan tumandagi umumta’lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 25-moddalari, “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonunining 27-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida” gi Nizomning 39-bandiga asosan hamda tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limining 2024-yil 4-iyundagi 313-sonli xatini inobatga olib, tumanda maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga qamrab olish jarayonida, umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud) ni aniq belgilab olish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Do‘stlik tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limining 2024-yil 4-iyundagi 313-sonli xati qanoatlantirilsin.

2. Do‘stlik tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish bo‘yicha umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud) ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimi o‘rinbosari (N.Saxatov), tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (Z.Ortikova) hamda tumandagi umumta’lim muassasalari rahbarlari zimmasiga maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish, o‘quvchilarning darslarga qatnashish xolati yuzasidan monitoring olib borish va uning natijasida aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha zarur choralar ko‘rish vazifasi topshirilsin.

4. Belgilansinki, tumandagi umumta’lim muassasalari rahbarlari o‘zlari rahbarlik qilayotgan muassasaga biriktirilgan hududdagi maktab yoshidagi bolalarni o‘z vaqtida umumta’lim muassasasiga o‘qishga jalb qilish uchun mas’ul hisoblanadi.

5. Mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi (M.Qudratova)ga, mahalla fuqarolar yig‘inlarida maktab yoshidagi bolalarni umumta’lim muassasalariga jalb etish jarayonida tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi hamda umumta’lim muassasalarga amaliy yordam berish tavsiya etilsin.

6. Tuman hokimligi axborot xizmati (B.Qorayev) ga, mazkur qarorning mazmun mohiyatini ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish tavsiya qilinsin.

7. Qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman hokimining 2023-yil 16-oktyabrdagi 197-3-47-Q/23-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari N.Saxatov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **SH.Darvishev**

Do‘stlik tuman hokimining
2024-yil 29-iyuldagi
164-3-47-Q/24-son qaroriga
1-ilova

ilova

Do‘stlik tumani Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli umumta’lim maktablariga biriktirilgan ko‘chalar nomi to‘g‘risida MA’LUMOT

T/r	Maktablar	Biriktirilgan ko‘chalar nomi	MFY lar
1	1-maktab	Do‘stlik, N.Begim, A.Yassaviy, Axillik, Sh.Rashidov, U,Nosir, Temir yo‘l, Abay, Kelajak, ko‘chalari va Mingchinor massivi, Nurafshon 2-3-4, Bog‘ishamol 1-2-3-4 ko‘chalari.	**G‘.G‘ulom M FY**
2	2-maktab	Navqiron, Do‘stlik, Boychechak, X.Olimjon, Beruniy, Bog‘ishamol va M.Ulug‘bek, Zarafshon ko‘chalari.	**“Chinobod”, G‘.G‘ulom MFY**
3	3-maktab	Yangi davr, Yangi taraqqiyot, Oybek, Ma’naviyat, Tafakkur, F.Xo‘jayev, Ma’rifat, Istedod, Musaffo, Tabassum, Nafis va Jannatmakon ko‘chalari.	**“Saritepa” MFY**
4	4-maktab	Marxamat, Norin, Samarqand, Hurriyat, Olimlar, Yangi zamon, Navbaxor, M.Dadajonov, Mirtemir, Mirishkor, Yakkabog‘, R.Yesinqulov, Guliston, Paxtazor, Obodlik, Murabbiylar, Navbaxor ko‘p qavatli uylar. Fidokor, Maysazor, Yulduz.	**“Qaxramon” MFY**
5	5-maktab	Charog‘on, Qora suv, Yakka tepa, Ming o‘rik, Jiydali, A.Farg‘oniy, A.N.Farobiy, Alpomish, Ko‘k tepak, Mingtol, Yunisobod, Ko‘k dala, Bo‘zsuv, Kumushkent ko‘chalari va “Yangi taraqqiyot” FXXU hududi.	**“Manas” MFY**
6	6-maktab	Sharq, Maftun, Saxovat, Ilg‘or, Baxt, Chaman, Barhayot, Bahor, Tinchlik, Quruvchilar ko‘chalari, Olmazor maxallasi, G‘ayrat 1-14-uylar, M.Abduvosiyev SIU	**“Navro‘z” MFY**

		shiyponlari, Madadkor hududi va G‘alaba ko‘chasi. SIU shiyponlari. Faollar, Paxtakor, Shodiyona, Birdamlik, Barkamol, Faravon, Sohil, Madaniyat, Baxt ko‘chalari.	
7	7-maktab	Y.X.Hojib, Bog‘ieram, Qurama, Chinorzor, Zulfiya, Mirishkor, Ko‘rkamobod, Uchquloch, Bekshodil, Bog‘iston, Shakarsoy, Boyto‘pi va Qo‘ng‘irobod ko‘chalari. Obihayot, Sohibkor.	**“Oltin vodiy” MFY**
8	8-maktab	Yuksalish, Sangzor, Ibrat, Toshkent, Motrudiy, Al-Buxoriy, Tinchliksevar, Bexbudiy, Yashnaobod, Uvaysiy, Jomiy, Bog‘bon, Xayrobot, Nav`ruz, Nav`ruz 284-285-286, Navruz 287-288-289, Navro‘z 290-293-294, Mavro‘z 295-296, Qo‘shrabot ko‘chalari va Bo‘g‘zor MFYdagi dala shiyponlari, Obixayot, Bo‘ston, Gulobod, Mirobod, Tokzor, O‘rikli, Zaminobod, Zarkent, Ziyokor, Mexnatsevar, Uzimzor, Lalimkor, Ma’rifatchi, Yoshlik ko‘chalari. Tolzor, Gulbaxor, Subxidam va Istiqbol ko‘chalari	**“Bog‘zor” MFY**
9	9-maktab	Go‘zalsoy, Porloq, Tutzor, Otchopar, Boyko‘l, Zavqiy, Asalchilar, X.Olimjon Islom Karimov, Nurli. S,Ayniy Zavqiy ko‘chalari	**“Bunyodkor” MFY**
10	10-maktab	G‘ayrat, G‘allakor, O‘rikzor, Sunbula, Zarzamin, Ravon yo‘l berk, nurlikent, Kamolat, Ravon yo‘l, Gulzor ko‘chalari, Iftixor, Bibixonim, U.Yusupov, Zarzamin, Ravon yo‘l.	**“Navro‘z” MFY**
11	11-maktab	Ezgulik, Do‘stlik ko‘p qavatli uylar, Andijon, Andijon ko‘p qavatli uylar, O‘zbekiston, Tiklanish, Fidokor, Axilobod, G‘oliblar, Ogoxiy, Dexqanobod, Islomobod ko‘chalari, Yotoqxona, Marjon, Tiklanish, Ziyonur, Nurli yo‘l, Yangi asr.	**“Qaxramon” MFY**
12	12-maktab	Chortoq, Boxoriston, Manas, Sug‘diyona, Chilonzor, Xatirchi, Shaxrixon, Anarzor, Anjirbog‘, Sho‘rsuv, Yunisobod,	**“Manas” MFY**

		Terakzor ko‘chalari, Qo‘rg‘on hududi va Jizzax ostonasi hududi.	
13	13-maktab	Mavazor, Davr, M.Avezev, Adolat, Islohat, A.Qaxxor, Ziyolilar, Uchtom ko‘chalari. Tuskon, Gulshan, Shukrona, Mevazor, Turon, Serquyosh, Minor, Sayqal, Rohat, Navnihol, Gulg‘uncha, Bog‘ichinor, Quvnoq va Donishmand ko‘chalari.	**“Mevazor” MFY**
14	14-maktab	Barokat, Turkiston, Ittifoq, Xalqlar do‘stligi, Xalqobod, Oqdaryo, Al Xorazimiy, Nuroniylar, Obod, Amir Temur, Namunali 1 (Lolazor, Oltin gumbaz, Baraka, Shirin ko‘chalar) Namunali 2 (Tadbirkorlar, Raqobod),(Nurchilar, Obod) Z.M.Bobur, Oydin yo‘l, Maqsad, Koinot, Mehr, Sanoat, Ziynat, Zahmatkash, Hurdiyor,	**“Chinobod” MFY “Sanoatchilar” MFY**
15	15-maktab	Elobod, Chorvador, Bog‘dorchilik, Afrosiyob, Go‘zal, Ravnaq, Binokor, Zakovat va Diyor ko‘chalari	**“Mevazor” MFY**
16	16-maktab	Jasorat, Ijodkor, Bodomgul, Favvora, Oltinsoy, Nafosat, Yangiobod, Parvona ko‘chalari, MTF, Eski paxta qabul qilish punkti Kelajak tongi, Bo‘ston, Yog‘du.	**“Saritepa” MFY**
17	17-maktab	S.Axmad, S.Zunnonova, Zomin, Oltin vodiy, Turkiston, Kattaqo‘rg‘on, Zilol, Polvontosh ko‘chalari va Dala shiyponlari, Bog‘isaroy 1-2-3, Yangisaroy, Matonat.	**“Oltin vodiy” MFY**
18	18-maktab	G‘.G‘ulom, Chamanzor, Shifokor, Oxunboboyev, Ibn Sino ko‘chalari.	**“Chinobod” MFY**
19	19-maktab	Chorbog‘, Matonat, Nurobod, Mashal, Andirsoy, Taraqqiyot, Omonobod, Ko‘chatli, Obodiyor Markaz, Nihol, Noturar uylar (dala shiyponlari),	**“Bunyodkor” MFY**
20	20-maktab	Zamin, Anjirli, A.Fitrat, B.Naqshbandiy, Mustaqillik, Faxriylar, A.Qodiriy. O.Sharofiddinov ko‘chalari va namunali uylar (Ipak yo‘li, Registon, Binafsha, Maroqand, Shabboda). Bekavlod, Billur,	**“A.Navoiy” MFY hududidagi Yangi hayot maskani va**

		Gulobod, Gulchinor, Buyuk kelajak, Vatan, Marvarid, Tabassum, Yangihayot, Oydin, Shalola, Yangiqadam, Navqiron, Fayziobod, Samo, Zilol.	**“Mevazor” MFY**